

**MERITOKRATIYA TIZIMI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTONDA
JORIY ETISH IMKONIYATLARI****Jakbaraliyev Zafarbek Ziyodjon o‘g‘li***O‘zbekiston Milliy Universiteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*zafarbekjakbaraliyev4@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada meritokratiya tushunchasining mohiyati va uning xalqaro tajribada qo‘llanilganligi shu bilan birga O‘zbekistonda joriy qilinishi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar : *meritokratiya, davlat boshqaruvi, kadrlar, tajriba , istiqbollar*

Аннотация: *В статье рассматривается сущность концепции меритократии и ее применение на международном уровне, а также ее внедрение в Узбекистане.*

Ключевые слова: *меритократия, государственное управление, кадры, опыт, перспективы*

Abstract: *The article discusses the essence of the concept of meritocracy and its application in international experience, as well as its introduction in Uzbekistan.*

Keywords: *meritocracy, public administration, personnel, experience, prospects*

Kirish

Bugungi kunda davlatning siyosiy tizimi va boshqaruvining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omil bu kadrlardir. Shu jihatdan meritokratiya – ya’ni lavozimlarga shaxsiy qobiliyati, malakasi, bilimi va ish natijalari asosida tanlanishi samarali ochiq va adolatli davlat boshqaruvi uchun asosiy tamoyillardan biridir. Meritokratiya deganda, davlat xizmatiga kirish va lavozimlarda o‘shish jarayonida shaxsiy aloqalarga, urug‘-aymoqchilik yoki siyosiy sadoqatga emas, balki nomzodning professional malakasi, bilim darajasi, amaliy tajribasi va erishgan natijalari asosida tanlov o‘tkazilishi tushuniladi. Meritokratiya oddiy insonning kundalik hayotida noma’lum tushuncha bo‘lishi tabiiy. Lekin, ijtimoiy, falsafiy va siyosiy jihatdan bu tushunchaning mazmun-mohiyati o‘zgacha. Bu tushunchani dastlab Maykl Yang tomonidan 1958-yilda nashr etilgan “Meritokratiyaning yuksalishi: 1870-2033” nomli satirik insho ijtimoiy va siyosiy tafakkurda yangi konsepsiyaning tug‘ilishini ko‘rsatdi⁵⁶. Meritokratiya – bu munosiblar hokimiyatidir. Zamonaviy davrda olimlarning fikricha, bu tizim davlat hokimiyatini idora etishda hozirgi zamon uchun eng kerakli va istiqbolli shakli bo‘la oladi. Sababi, boshqaruvda turli nomunosib yoki yetarlicha bilim va salohiyatga ega bo‘lmagan shaxslarni hokimiyat tepasiga kelishini oldini oladi, hamda zamonaviy davlat

⁵⁶Michael Young. The rise of the meritocracy 1870-2033. An Essay on Education and Equality. Penguin books Ltd, Harmondsworth, Middletsex. m1961. P-188.

qurilishida keng qamrovli va muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirishga munosib zamin yaratadi. Meritokratiya tushunchasini faol muhokama qilgan olimlardan yana biri Daniel Belldir. U meritokratiyani postindustrial jamiyatning asosiy xususiyati sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikricha byurokratiya o‘rni malakali mutaxassislar, intellektuallar va professionallar egallashi kerak. Lavozimlar qobiliyat, bilim va natijalarga asoslangan holda berilishi lozim⁵⁷.

Umuman olganda meritokratiya tizimining boshqaruv sohasida o‘rni beqiyos hisoblanib, davlat va jamiyatni oqilona, shaffof va adolatli idora etishning zarur shakli sifatida talqin qila olamiz. Bu orqali insonlarni salohiyatli, bilimli va malakali kadr bo‘lib yetishishga bo‘lgan ijobiy fikrlarini yanada rivojlanishiga, zamonaviy kadrlarni har tomonlama yetuk mutaxassis va egallagan sohasi doirasi keng ko‘lamli amaliy va nazariy tajriba olishiga undaydi.

Xalqaro tajriba. Dunyoda meritokratiya tizimi asosida rivojlangan mamlakatlardan biri Singapur – dunyoda birinchi bo‘lib davlat boshqaruvini “siyosiy meritokratiya”, deb e‘lon qilgan yagona mamlakatdir. Ushbu hodisaning o‘ziga xosligi shundaki, tabiiy ravishda siyosiy va iqtisodiy sohada ishlash uchun iqtidorli kadrlar ishga taklif etiladi. Singapurning kam sonli aholisi va cheklangan resurs bazasini hisobga olgan holda mamlakatni mohir iste‘dodli va eng yaxshi xususiyatlarga ega kadrlar boshqarishi kerak, degan xulosaga keladi⁵⁸.

Ma‘lumki o‘tgan asarda Singapurning ijtimoiy-siyosiy ahvoli og‘ir edi. Davlatning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan tabiiy resurslarning kamligi siyosiy tizimning qaror qabul qilishini bir muncha qiyinlashtirdi. Aynan o‘sha vaqtda Singapur siyosatshunoslari va davlat yetakchilarining meritokratiya tizimiga e‘tibor qaratishi va yosh kadrlarni oqilona boshqaruvga jalb qilishi, hozirgi kundagi Singapurni Osiyoning rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin egallashiga poydevor bo‘ldi. Singapur Li Kuan Yu tomonidan joriy etilgan siyosiy meritokratiya rejimi ostida faoliyat yuritadi. U siyosiy yetakchilar haqida shunday degan: “Singapur meritokratiyadir va odamlar o‘zlarining xizmatlari tufayli yuqori cho‘qqilarga chiqish uchun sababga ega. Ular ko‘p mehnat qilishadi va ko‘p narsalarga erishadilar”⁵⁹. Singapur bosh vaziri Li Kuan Yu o‘z vaqtida oqilona qarori orqali bugungi Singapur qiyofasi shakllandi. Bu tizim Singapurda hozirgacha o‘z mavqeini yo‘qotgan emas, balki bu tizim yildan yilga takomillashmoqda va davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda “Singapur modeli”dan qisman foydalanib kelinadi.

⁵⁷ Daniel Bell. On meritocracy and equality. 1972. p 2

⁵⁸ Mirzavaliyev J, DAVLAT BOSHQARUVIDA MERITOKRATIYA TIZIMINING AHAMIYATI VA O‘ZBEKISTONDA AMALIYOTGA JORIY QILISH MEXANIZMLARI // Falsafa va huquq (№33). 2025.

⁵⁹ ZHUK, Artur. (2015). POLITICAL MERITOCRACY IN SINGAPORE. Historical and social-educational ideas. 39-42.

Xitoyning siyosiy tizimi so‘nggi yigirma yil ichida yanada meritokratik prinsiplarga yaqinlashtirilgan. Singapurda hukumat tarkibi kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun mo‘ljallangan boshqa qator institutlar ham mavjud. Ushbu muassasalar qatoriga “Davlat xizmati kolleji” kiradi. Ushbu kollej 1971-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy vazifasi innovatsion muvafaqqiyatli biznes g‘oyalarni davlatni rivojlantirish va isloh qilish bilan birlashtirish edi. Keyinchalik davlat xizmati kolleji davlat xizmati bo‘limida va bosh vazir idorasida rasmiy kengashga aylandi. Ushbu qoida 2001-yil oktabr oyida qabul qilingan “Davlat xizmati kolleji to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlangan”⁶⁰.

Zamonaviy yapon jamiyatining ham ijtimoiy-siyosiy boshqaruvida meritokratiya tamoyillari namoyon bo‘ladi. Yaponiya Osiyo mamlakatlari orasida kadrlar salohiyati va ularning malakasi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. Ayniqsa, davlat xizmati sohasida kadrlarni malakali va salohiyatli qilishga ko‘p e‘tibor qaratilgan. “Davlat xizmatida malaka oshirishning asosiy yo‘nalishi – “ish joyida o‘qitish” (O‘JO) bo‘lib, u quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- lavozim darajalari bo‘yicha o‘quv kurslari va treninglar tashkil etiladi, jumladan, yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun qisqa muddatli seminarlar va yuqori lavozimlar uchun maxsus “liderlik” kurslari;
- uzoq va qisqa muddatli stajirovka dasturlari orqali xalqaro va ichki tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi;
- har ikki yilda bir marta o‘quv kurslarining samaradorligi maxsus so‘rovnomalar orqali baholanadi. Ushbu tizim orqali har bir davlat xizmatchisi doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishi ta‘minlanadi”⁶¹.

Ta‘kidlab o‘tilgan jarayonlar kadrlarni tajriba va ko‘nikmasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, meritokratik tamoyillarga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu jihatdan yapon jamiyatining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi yutuqlari aqlbovar qilmas darajaga yetdi va bu qolgan davlatlar uchun xalqaro tajriba asnosida gavdalandi.

O‘zbekistonda joriy xolat va islohotlar. O‘zbekiston Respublikasida meritokratiya tizimini joriy etish bo‘yicha taklif va murojaatlarning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini ko‘rishimiz mumkin. Bunda “kasbga oid sifatleri va alohida xizmatlarini odilona va obyektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni

⁶⁰ Mirzavaliyev J, DAVLAT BOSHQARUVIDA MERITOKRATIYA TIZIMINING AHAMIYATI VA O‘ZBEKISTONDA AMALIYOTGA JORIY QILISH MEKANIZMLARI // Falsafa va huquq (№33). 2025.

⁶¹ Abdukurimov, O. (2025). Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 3(4).

davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo‘yicha ko‘tarilishini nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyilini qo‘llash⁶²” belgilab qo‘yilishi ham bugungi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bir bo‘lagi sifatida aynan davlat boshqaruvi va fuqarolik xizmatida meritokratiya tizimiga bosqichma-bosqich o‘tilishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu tizim mamlakatimiz fuqarolarining davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimiga bo‘lgan ishonch, adolat va shaffoflik kabi ijobiy fikrlarni bildirilishiga erishishimiz kelgusida O‘zbekistonning har tomonlama taraqqiyoti va rivojlanishiga sabab bo‘ladigan kadrlar va salohiyatli yosh avlodning yetishib chiqishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda meritokratiyani rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz rahbarini sa’y-harakatlarni uzviy davomi sifatida “O‘zbekiston-2030” strategiyasini ko‘rishimiz mumkin. Strategiyaning 81-maqsadi “Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish”⁶³ deb belgilab qo‘yilishi ham kelgusida bu tizimni davlat va fuqarolar manfaatlarini uchun xizmat qilishiga katta ishonch bildirilayotganini ko‘rsatadi. “Davlat boshqaruvida meritokratiya tizimini joriy etish — zamonaviy boshqaruv samaradorligini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir”⁶⁴. Meritokratiya, avvalo, rahbar va mutaxassis kadrlarni shaxsiy sadoqat, qarindoshlik yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosida emas, balki ularning bilim darajasi, kasbiy mahorati va erishgan amaliy natijalariga qarab tanlashni anglatadi. Bunday yondashuv boshqaruvning barcha darajalarida adolat, ochiqlik va mas’uliyat tamoyillarini mustahkam o‘rnatadi. Natijada, davlat xizmatida haqiqiy professionallik kuchayadi, korrupsiya xavfi sezilarli darajada kamayadi, qabul qilinadigan qarorlarning sifati oshadi va fuqarolarning davlat idoralariga bo‘lgan ishonchi ortadi.

Xulosa

Meritokratiya zamonaviy davlat boshqaruvining samarali va istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi. Singapur va Yaponiya misollarida yaqqol ko‘rinib turganidek, meritokratiya tamoyillari asosida shakllangan boshqaruv tizimi mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishida yuqori natijalarga erishishga imkon bergan. Kelgusida O‘zbekistonda meritokratiya tizimini yanada chuqurlashtirish, kadrlar zaxirasini shakllantirish, ularning malakasini doimiy ravishda oshirish va xalqaro tajribani o‘zlashtirish orqali mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish mumkin. Bu nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini, balki butun jamiyatning adolatli va barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi.

⁶² O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini.

⁶³ PF-21-сoH 16.02.2026. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida

⁶⁴ Mirzavaliyev J, DAVLAT BOSHQARUVIDA MERITOKRATIYA TIZIMINING AHAMIYATI VA O‘ZBEKISTONDA AMALIYOTGA JORIY QILISH MEKANIZMLARI // Falsafa va huquq (№33). 2025.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. PF-21-сoH 16.02.2026. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida – <https://lex.uz/docs/-8050769>
3. Daniel Bell. On meritocracy an equality. 1972. P-2 <https://www.nationalaffairs.com/storage/app/uploads/public/58e/1a4/b60/58e1a4b603517781616817.pdf>
4. Mirzavaliyev J, DAVLAT BOSHQARUVIDA MERITOKRATIYA TIZIMINING AHAMIYATI VA O‘ZBEKISTONDA AMALIYOTGA JORIY QILISH MEXANIZMLARI // Falsafa va huquq (№33). 2025. 109-112 b.
5. Abdukarimov , O. (2025). Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(4). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15437136>
6. ZHUK, Artur. (2015). POLITICAL MERITOCRACY IN SINGAPORE. Historical and social-educational ideas. 7. 39-42.